

**BADIIY-BEZASH DARSLARIDA O`QUVCHILAR QIZQISHLARINI OSHIRISH
OMILLARI**

Azimov Mirzo Maxmud Mirzabaxrom o`g`li

Namangan Davlat universiteti San`at shunoslik magistrati

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabda tasviriy san`atda badiiy- bezash bo`yicha barcha ma`lumotlar keltirilgan*

Kalit so'zlar: *naqsh , quticha , sandiq , choyshab , zargarlik buyumlari .*

O`zbekistonning amaliy bezak san`atini go`zal naqsh bezaklarsiz tasavvur etib bo`lmaydi. Bu san`at turi namunalarining eng oddiydan tortib o`ta murakkablarida ham , o`lcham jihatidan mo`jazlaridan tortib to mahobatli namunalarida ham ramziy ma`no kasb etgan shakllarni ko`rishimiz mumkin . Bunday nafis bezaklarni bolalar o`yinchoqlarida , beshik , sandiq , kursi , stol , xontaxta , quticha , shaxmat taxtasi , choyshab , belbog` , so`zana , kashta , silam , zargarlik buyumlari , zardoziq va shu kabi badiiy hunarmandlik namunalarida ko`rishimiz mumkin . O`zbek ustalarining amaliy bezak san`atiga oid asarlarida xalq madaniyati va turmush tarsi o`z aksini topgan . San`atining bu turi juda qadimiy bo`lib , asarlar osha rivojlanib , takomillashib kelgan . Bizning davrimizda ham amaliy bezak san`ati rivojlanib , shuhrati dunyoga mashhur bo`lib bormoqda . Bu san`at namunalari Samarqand , Buxoro , Xiva , Toshkent kabi shaharlardagi muzeylarning doimiy ko`rgazmasi ekspozitsiyasidan joy olgan . Naqqoshlik san`atida to`rt tomoni teng to`rtburchak kvadrat (lotincha "quadrates" , arabcha "murabba")- abadiylik , yorug`lik , romb - ona - Yer besh qirrali yulduz - dunyoning o`tkinchi ekanligi , quyosh - hayot ramziy , bulut , olov - g`oliblik ramzi , aylana - baxt , Humo qushi - baxt- iqbol , yangi chiqqan oy - musulmonlik ramzi , qalampir- yomon ko`zdan asrash , olma- muhabbat , ohu- noziklik , go`zalikni anglatadi . Xalq amaliy bezak san`atida qo`llaniladigan ranglar ham o`ziga xos ma`no- mazmun kasb etadi . Amaliy bezak san`atida qo`llaniladigan ramziy shakllar va ularning ma`nosi insonlar hayoti kabi tarixiy va rang- barang , insonlar hayoti bilan bog`liq . Insonlarning hayoti , turmush tarsi , mahalliy sharoiti turli - tuman bo`lganligi uchun amaliy san`atda qo`llaniladigan ramziy shakllar , rang va tasvir usullari ham turlicha bo`ladi .

Estetik tarbiya vositalari tizimida estetik bilimlar asoslari hisoblangan estetik nazariya ham katta ahamiyat kasb etadi . Estetik nazariya estetik tuyg_u , estetik did , estetik orzu kabi estetik ong qismlariga ta`sir o`tkazadi . Estetik tuyg_u-estetik did , estetik orzu estetik nazariyaning ta`siri ostida quvvat oladi .

Tasviriy san`atdan bahramand bo`lish , undan lazzatlanish uchun muayyan darajada badiiy bilimlarga ham ega bo`lish lozim . San`atga intilib yashash , badiiy ijod mahsullarini idrok etish , zavq olish qobiliyati ko`p jihatdan insonning badiiy saviyasiga

bog`lik. Estetik tarbiyada badiiy ta`lim bilan bir qatorda san`atshunoslikning ahamiyati ham katta. San`atshunoslik bilimlari san`at aniq turlarining xususiyatlari va maxsus qonuniyatlari mohiyatini ochib berishga, badiiy ijodning ayrim sohalari tarixi bilan tanishishga, san`atning eng muhim yo`nalishlari va oqimlari to`g`risida tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

U badiiy idrok madaniyat va tasviriy san`at asarlarini ishonchli tarzda baholash qobiliyatini rivojlantirishga, ularning his-tuyg`uli va nazariy tomonlariga xizmat qiladi. Estetik tarbiya tizimi oila va maktab, mafkura muassasalari, ommaviy axborot vositalari, madaniy muassasalar. ijtimoiysiyosiy tashkilotlar kabi bo`g`inlarda yaxlit holda amal qilgandagina kutilgan natijalarga olib keladi. Estetik tarbiyada oila, maktab va o`quv yurtlarning o`zaro hamkorligi ham yaxshi natijalar keltiradi. Estetik tarbiya ijtimoiy faol, har tomonlama va hamoxang rivojlangan shaxsni tarbiyalash maqsadiga yo`naltirilgan.

Xulosa qilib aytganda, O`zbekiston mustaqil davlati yoshlarining estetik ongini yanada shakllantirish estetik tarbiya oldidagi dolzarb vazifa bo`lib, jamiyat badiiy madaniyatini yanada yuksaltirishga, estetik talab-ehtiyojlar va qadriyatlarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Mamatov U. O`zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san`at asarlari. – Monografiya. T., 2019
2. Jabborova O. Bo`lajak o`qituvchilarning badiiy idrokini shakllantirish. – o`quv qo`llanma. – T., 2012
3. Volkov N.N. –Kompozitsiya jivopisi||, Metodicheskoye posobiye. M.: –Iskusstvo||, 1997.